

**APELLATSIYA VA KASSATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISHDA  
PROKUROR VAKOLATLARI**

*Toshkent viloyati  
yuridik texnikum o‘quvchisi  
Soburova Barchinoy Qahramon qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada appellatsiya va kassatsiya tartibida ish yuritish haqida bayon qilingan

**Kalit so‘zlar:** appellatsiya, kassatsiya

Sud hukmi, ajrimi va qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida tekshirilishi mumkin. Ishni yuqori instansiya sudi tomonidan ko‘rish appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida berilgan shikoyat va bildirilgan protestlar asosida amalga oshiriladi. Appellatsiya tartibida: Sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berishga — mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili haqlidir. Sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan appellatsiya tartibida protest bildirishga — prokuror va uning o‘ribbosari haqlidir.

Fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari hukmning fuqaroviylar da’voga daxldor qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir. Sudda oqlangan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili hukmning oqlash sabablari va asoslariga doir qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir. Hukm ustidan shikoyat bergen yoki protest bildirigan shaxs o!z shikoyati va protestini qaytarib olishga haqlidir. Protestni qaytarib olish huquqiga yuqori turuvchi prokuror ham ega. Birinchi instansiya sudining hukmi ustidan appellatsiya shikoyatlari va protestlari hukm e’lon qilingan kundan e’tiboran o‘n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e’tiboran, shunday muddat ichida berilishi mumkin. Taraflar (prokuror ham) shu vaqt mobaynida ish bilan sud binosida tanishishga haqlidir. Hukm ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish muddati uzrli sabablariga ko‘ra « ‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, sud tomonidan bu muddat tiklanishi mumkin.

Appellatsiya tartibida protest bildirilgan yoki appellatsiya tartibida shikoyat bildirilgan jinoyat ishlari ular yuzasidan bildirilgan e’tirozlar va taqdim etilgan qo‘sishimcha materiallar bilan o‘n kundan kechiktirmay appellatsiya instansiyasi sudiga yuborilishi lozim. Ish bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan yuqorida ko‘rsatilgan vakolatli shaxslar tomonidan u chiqarilgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda xususiy shikoyat va xususiy protest bildirilishi mumkin. Appellatsiya tartibida ish yuritish birinchi instansiya sudidagi ish yuritish qoidalari bo‘yicha va

O'zbekiston Respublikasi JPKning 55-bobida ko'rsatilgan tartib va qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Apellatsiya tartibida ishni ko'frishda prokurorning ishtiroki shart hisoblanadi. Apellatsiya tartibida ish yuritishda raislik qiluvchi appellatsiya shikoyati bergen shaxsga, appellatsiya shikoyati va protesti kimga nisbatan berilgan bo'lsa, o'sha shaxsga, ularning himoyachilari va vakillariga, sofngra esa prokurorga sofz beradi. Agar berilgan appellatsiya shikoyatlari orasida prokurorning appellatsiya protesti bo'lsa, sofz birinchi navbatda unga beriladi. Prokuror appellatsiya protestining mazmunini va maqsadini batafsil sud hay'atiga tushuntirib berishi lozim. Protest kiritilish asoslari, nima sababdan prokuror sudning chiqargan qarorini g'ayriqonuniy, asoslanmagan yoki adolatsiz deb hisoblayotganligini qonun talablari asosida tushuntirib berishi kerak. Sud tomonidan aynan qaysi qonun normalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy cudi plenumining qaysi qarori, qaysi talablari e'tiborga olinmaganligi yoxud bu qonuniy talablarni qay tarzda buzilganligini bayon qilib berishi lozim. Sud muhokamasi o'tkazilib, sud tergovi o'tkaziladigan bo'lsa, sud muhokamasi mobaynidagi qonun bilan belgilangan vakolatlaridan to'liq foydalanadi. Prokuror sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etayotgan boshqa shaxslar kabi yangi guvohlarni chaqirish, ekspertiza o'tkazish, ularga birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirib ko'rish uchun rad etilgan ashyolar va hujjatlarni talab qilib olish to'g'risida iltimos qilishga haqlidir. Dalillarni tekshirish tugagach, sudya taraflardan sud tergoviga qo'shimcha qilish haqida iltimoslari bor-yo'qligini surishtiradi, sud bu iltimoslarni hal etadi va sud muzokaralariga o'tadi.

Sud muzokarasi birinchi instansiya sudidagi sud muzokarasi talablari asosida amalga oshiriladi va shikoyat, protest bergen shaxs birinchi bo'lib so'zga chiqadi. Sud muzokaralari tamom bo'lganidan keyin raislik qiluvchi sudlanuvchiga, agar u ishtirok etayotgan bo'lsa, oxirgi so'z beradi, shundan keyin sud qaror chiqarish uchun maslahatxonaga kiradi. Appellatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqaradi. Ajrim sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Appellatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin. Xususiy shikoyat yoki xususiy protest appellatsiya shikoyatlari va protestlari bilan bir vaqtda ko'rib chiqiladi. Xususiy shikoyat yoki protest bo'yicha sud o'sha yeming o'zida yoki maslahatxonada ajrim chiqaradi. Xususiy shikoyat yoki protest bo'yicha chiqarilgan sud ajrimi qat'iy hisoblanadi. Kassatsiya tartibida:

Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi va ajrimi ustidanagar ish appellatsiya tartibida ko'rilgan bo'lmasa kassatsiya tartibida shikoyat berishga — mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili haqlidir. Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi (qarori) ustidan, agar ish appellatsiya tartibida ko'rilgan bo'lmasa, kassatsiya tartibida protest bildirish:

noyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan — Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, jinoyat

ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga; • Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan — shu sudlarning sudlov hay'atlariga; • O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan - shu sudning sudlov hay'atiga; • Okrug va hududiy harbiy sudlarning qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan -O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan esa shu sudning sudlov hay'atiga cassatsiya tartibida shikoyat va protest bildirilishi mumkin: a) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi - barcha instansiya sudlarining hukmlari va ajrimlari (qarorlari) ustidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinnbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinnbosarlari -O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlaridan tashqari, har qanday sudning hukmlari va ajrimlari (qarorlari) ustidan; b) Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudining raisi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar - jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining hukmlari va ajrimlari ustidan cassatsiya tartibida protest kiritishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.A. Karimov. Barqaror taraqqiyotga erishish — usuvor vazifa. ( O 'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 1998-yil 25-fevral.) Т., « O 'zbekiston», 1998, 17-bet.
2. Государственный обвинитель в советском деле. (Под общей редакцией В.А. Болдырева.) М., 1954, стр. 300.
3. А.Ж. Давлетов. Прокурорский надзор. Учебник. Нукус, «Bilim», 1999, стр. 194.